Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish masalalari



Mamlakatimizda osoyishtalikni saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Bu borada qilinayotgan ishlar tufayli mahallalarda jinoyatchilik sezilarli darajada kamaydi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni[1] orqali ichki ishlar organlarini boshqarish tizimi to‘liq optimallashtirilib, xodimlarining bevosita aholi uchun qulay joylarda faoliyat yuritishi ta’minlandi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-3159827.



Respublikaning barcha hududlarida “102” tizimi orqali jinoyat va hodisalar to‘g‘risidagi ariza va xabarlarni avtomatlashtirilgan holda qabul qilish yo‘lga qo‘yildi.

kasini yuritish bo‘yicha xalqaro hamjamiyatning umume’tirof etilgan tajribasidan kelib chiqib, 100 ming aholiga to‘g‘ri keladigan jinoyatlar sonini hisoblash belgilandi. Kriminogen vaziyatni xolisona tahlil qilish va jinoyatlarni yashirmaslik maqsadida xodimlarning tashabbusi bilan aniqlangan jinoyatlarni ijobiy natija sifatida baholash tizimi qabul qilindi.

Ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan bu islohotlar mamlakatimizda xavfsiz muhitni ta’minlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini bevosita jinoyatchilik bilan bog‘liq vaziyatdan ham ko‘rish mumkin. Bugungi kunda O‘zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida eng kam jinoyat sodir etilgan davlat hisoblanadi.

Tizimdagi barcha tarmoq xizmatlari yana isloh qilindi. Davr talabidan kelib chiqib, turizm xavfsizligini ta’minlash, probatsiya, tergov va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan bo‘linmalar tashkil etildi. Ayollarning qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va xavfsizligini ta’minlash maqsadida xotin-qizlar bilan ishlovchi inspektorlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha psixologlar xizmati ishga tushirildi.

Islohotlarning ikkinchi bosqichi 2021-yil 12-fevraldan boshlandi. Aynan birinchi marta tashkil etilgan Ichki ishlar vazirligi hay’atining kengaytirilgan yig‘ilishi mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlashda yangi sahifa ochdi. Xususan, mamlakatimizdagi barcha mahallalar kriminogen vaziyatdan kelib chiqib, uch toifaga, ya’ni “qizil”, “sariq” va “yashil”ga bo‘lindi. Jinoyat sabablarini ilmiy yondashuv asosida aniqlash va bartaraf etish maqsadida vaziyati murakkab mahallalar idoraviy oliy ta’lim muassasalariga (Ichki ishlar vazirligi akademiyasi,

Jumladan, yirik bozorlar, savdo majmualari va aholi zich joylashgan hududlarda yangi ichki ishlar bo‘limlari tashkil etildi. Har bir mahallaga bittadan profilaktika inspektori ajratildi. Har bir rahbar va xodimning jinoyatchilikka qarshi kurashishga yondashuvi tubdan o‘zgardi. Raqam va foiz quvish emas, balki fuqarolarning huquqlarini himoya qilish ularning asosiy vazifasiga aylandi. Jinoyat statisti-



Bosh prokuratura akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti) biriktirildi. Nisbatan koʻp jinoyat sodir etiladigan mahallalarda "Mahalla huquq-tartibot markazlari" tashkil etilib, katta profilaktika inspektorlarining tergovchilar, favqulodda vaziyatlar boʻyicha tezkor xodimlar, Milliy gvardiya xodimlari bilan birgalikdagi faoliyati yoʻlga qoʻyildi.

2021-yildan boshlab har oyda viloyat va tuman-shahar hokimlari profilaktika inspektorlari bilan shaxsan uchrashib, muammolarni bartaraf etishni boshladi. Oʻtgan davr mobaynida profilaktika inspektorlarining kompyuter va moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash uchun hokimlar mablagʻ ajratib, xizmat idoralari yangidan qurilib, ta'mirlandi. Bu profilaktika inspektorining mahallada vazifalarini toʻliq bajarishi uchun sharoit yaratmoqda.

Bugungi kunda jinoyatning oldini olish va fosh etish, qidiruvda boʻlgan shaxslarni ushlash kabi tadbirlarni ilmiy tadqiq etish orqali har bir hududning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish vaqti keldi. Shu bois ichki ishlar organlarida kriminogen vaziyatni tahlil qilish va jinoyatchilik dinamikasini bashorat qilishning mutlaqo yangi mexanizmi yaratildi. Uning doirasida huquqiy statistika va tezkor ma'lumotlar markazi vazirlik tizimida jinoyatlar statistikasini yurituvchi yagona tizim sifatida qayta tashkil etildi. Natijada yoshlar, ayollar, aholining boshqa qatlamlari vakillari sodir etayotgan jinoyatlarning asl sabablarini tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

Respublikaning barcha hududlarida "102" tizimi orqali jinoyat va hodisalar toʻgʻrisidagi ariza va xabarlarni avtomatlashtirilgan holda qabul qilish yoʻlga qoʻyildi. Shu bilan birga inson aralashuvisiz barcha ariza va xabarlarni roʻyxatga olish, ularning har biri boʻyicha barcha tergov va tezkor-qidiruv tadbirlarini zudlik bilan amalga oshirish tizimi ishga tushirilgan. Shu bois avvallari turli mayda noxush holatlar (telefon, velosiped yoki boshqa qimmatbaho buyumlarning yoʻqolishi, koʻchadagi janjal) haqida xabar bermagan shaxslar endilikda ichki ishlar organlariga murojaat qilishyapti va ularning har biri atroflicha oʻrganilib, hal etilmoqda.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida erishilayotgan natijalardan xotirjam boʻlib qolmay, uni rivojlangan davlatlar darajasiga yetkazish lozim. Shu maqsadda mamlakatimiz aholisining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash, jamiyatimizda qonunga itoatkorlik madaniyatini shakllantirish va jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida bir qator hujjatlar qabul qilindi. Xususan, Oʻzbekiston Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda "Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi[2] farmoni qabul qilindi va mazkur farmon bilan Oʻzbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligi konsepsiyasi, 2022 – 2025-yillarda Oʻzbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi.

> Xodimlar va fuqarolarning harakat doirasini belgilab beruvchi Jamoat xavfsizligini ta'minlash toʻgʻrisidagi nizomni ishlab chiqish lozim.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini belgilab beruvchi muhim hujjat sifatida konsepsiyada jamoat xavfsizligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash tushunchalarining aniq ta'riflari belgilandi. Unga koʻra, "jamoat xavfsizligi – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati boʻlib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari roʻyobga chiqarilishini ta'minlaydi". Jamoat xavfsizligini ta'minlash esa davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizimdir.

Konsepsiyada jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlar sifatida Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Raqam-

[2] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Oʻzbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi farmoni. https://lex.uz/docs/-5749291.

li texnologiyalar vazirligi (avvalgi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi), Sog‘liqni saqlash vazirligi va mahalliy davlat hokimiyati organlari qayd etilgan. Boshqa davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etuvchi subyektlar hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligi konsepsiyasining mazkur sohada qabul qilingan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlardan o‘ziga xos va farqli jihati shundaki, u jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. Konsepsiyaning bu xususiyati uni hayotga tatbiq etishni osonlashtiradi.

Bu fikrimizni misollar bilan asoslashga harakat qilamiz. Hozirgi vaqtda ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash va probatsiya sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar hamda idoraviy me’yorlar asosida har bir organ o‘z vakolatlari doirasida ishlaydi. Bu xizmatlar, ularning vazifalariga muvofiq, har bir bo‘lim tomonidan qabul qilingan me’yoriy hujjatlar orqali amalga oshiriladi. Bu holat ba’zan yuqorida qayd etilgan xizmat xodimlarining birgalikdagi harakatlarida nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. Fuqarolar ularning harakatlariga e’tiroz bildirgan hollarda jamoat xavfsizligini ta’minlash organlari xodimlarining harakatlariga huquqiy baho berishda muayyan muammolar yuzaga keladi.

2022–2025-yillarda O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida yuqorida qayd etilgan vakolatli organlarning 200 dan ortiq normativ-huquqiy va idoraviy hujjatidagi norma va qoidalarni birlashtiruvchi yagona qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish orqali ushbu muammoni hal qilish ko‘zda tutilgan.

Yo‘l harakati qoidalarini buzish holatlarining keskin ortib borishi va yo‘l-transport hodisalarining og‘ir oqibatlarini (halok bo‘lganlar sonining ortishi) bartaraf etish maqsadida strategiyada yo‘l harakati xavfsizligi qoidalarini muntazam va qasddan buzgan shaxslarga nisbatan javobgarlikni kuchaytirish qayd etilgan.

Ta’kidlanganlardan tashqari, quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi muammolari. Patrul-post xizmatining hamon eskicha ish uslublari asosida faoliyat yuritayotgani ko‘pchilikda salbiy fikrlarni shakllantirmoqda. Ya’ni, ushbu xizmat xodimlarining ichki ishlar organlariga shubhali yoki jinoyatchi shaxslarni olib kelishi fuqarolarning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda. Shu bois jamoat joylarida xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha mustaqil xizmatni tashkil etish zarurati mavjud.

Xodimlarning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi harakatlari ko‘lami “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun, Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tasdiqlangan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar, ichki ishlar vazirining buyruqlari bilan belgilanadi. Biroq ularda xodimlar harakatlarining umumiy doirasi, jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun xizmat vazifalarini bajarish paytida yuzaga keladigan vaziyatlarda fuqarolarning harakatlari qanday baholanishi va bunday hollarda xodim qanday harakat qilishi kerakligi aniqlanmagan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ushbu sohada xodimlar va fuqarolarning harakat doirasini belgilab beruvchi Jamoat xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqish lozim. Ushbu nizomni ishlab chiqishda fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari himoya qilinishini ta’minlashga, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlash vazifasi yuklatilgan xodimning huquqlarini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish zarur. Zero, jamoat xavfsizligini ta’minlovchi xodim davlat xizmatchisi sifatida davlat vazifalarini bajarishga safarbar etilgan.

Bundan tashqari, nizomda davlat xavfsizligi organlari xodimlarining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida vujudga keladigan munosabatlarning umumiy jihatlarini aniq ko‘rsatishga e’tibor qaratish zarur. Normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinishi va jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib qilinishi ularning huquqiy bilimi va madaniyatini yuksaltirish bilan birga jamoat xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shahnoza NURULLAYEVA,
Milliy gvardiyaning Jizzax viloyati boshqarmasi Sharof Rashidov tumani bo‘limi inspektor-psixologi